

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ADILBEKOV ALLAYAR ANVARBEKOVICH

**OZIQ-OVQAT SANOATIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии по
экономическим наукам (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy in Economic
sciences (PhD)**

Adilbekov Allayar Anvarbekovich

Oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligini
oshirish mexanizmini takomillashtirish3

Адилбеков Аллаяра Анварбекович

Совершенствование механизма повышения эффективности
производства продукции в пищевой
промышленности.....29

Adilbekov Allayar Anvarbekovich

Improving the mechanism for increasing production efficiency in the food
industry59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ADILBEKOV ALLAYAR ANVARBEKOVICH

**OZIQ-OVQAT SANOATIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Iqt5646 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tdtu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aimbetov Nag'met Qalliyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Kadirov Abdusatarxodja
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Tursunxodjayev Marat Lutfullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.02.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2 uy. Tel.: (99871) 207-14-64; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 1000, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 207-14-70; e-mail: tstu_info@tdtu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "___" _____dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.I. Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.J. Allayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi sonining o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, resurslar tanqisligi va energiya xarajatlarining oshib borishi sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini ta'minlash, raqamli texnologiyalar va "yashil" ishlab chiqarish usullarini joriy etish oziq-ovqat sanoati barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, "Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida 2023–2027-yillarga mo'ljallangan umumiy qiymati 273,1 mlrd yevrolik "CAP" mintaqaviy dasturi amal qilib"¹, ushbu dastur doirasida mahalliy oziq-ovqat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, "yashil" texnologiyalarni joriy etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar, asosan, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, texnik-texnologik modernizatsiyalash, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, xomashyo ta'minoti zanjirini barqarorlashtirish va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilmoqda. Ayniqsa, kichik ishlab chiqaruvchi subyektlarni qiymat zanjiriga integratsiyalash, hududiy ixtisoslashuv asosida qayta ishlash quvvatlarini joylashtirish, mahsulot harakati va ishlab chiqarish bosqichlarini raqamli monitoring qilish hamda istiqbolli prognoz ko'rsatkichlari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish masalalari oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ustuvor ilmiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yangi O'zbekiston islohotlari sharoitida aholining sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan institutsional va iqtisodiy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Zero, 2024–2028-yillarda "sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga

¹ The Common Agricultural Policy at a Glance ma'lumotlari asosida tuzilgan // URL: https://agriculture.ec.europa.eu/common-agricultural-policy/cap-overview/cap-glance_en

yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga va eksport ko'rsatkichlarini 2 baravarga oshirish"² maqsad qilingan. Aholi soni va iste'mol talabining o'sayotganligi, kichik oziq-ovqat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini doimiy oshirib borish, xomashyo ta'minoti va qayta ishlash quvvatlari o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish, raqamli boshqaruv tizimlarini to'liq joriy etish kabi muammolar ushbu sohada mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini belgilab beradi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston-

ning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 13-iyundagi PF-153-son "Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-sonli "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 20-iyundagi PQ-227-son "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi 37-son "Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, 2024-yil 1-avgustdagi 476-son "Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Uzoq xorijlik P.S. Verhoef, A. Sharma, M. Ronzoni, B.S. Runk, V. Sodano, M.N. Gaglani³ kabi olimlar

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Manba: <https://lex.uz/docs/6802687>.

³ Verhoef P. C., Broekhuizen T., Bart Y., Bhattacharya A., Qi Dong J., Fabian N., et al. Digital transformation: a multidisciplinary reflection and research agenda. J. Bus. Res. Vol. 122, 2021. – pp. 889–901; Sharma A., Jain A., Gupta P., & Chowdary V. Machine learning applications for precision agriculture: A comprehensive review. IEEE Access, Vol. 9, 2021. – pp. 4843–4873; Ronzoni M., Accorsi R.,

so'nggi yillarda oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning global tendensiyalarini tadqiq etishgan.

MDH davlatlari olimlaridan G.N. Ivanova, Ye.N. Aleksandrova, A.A. Kaygorodsev, L.T. Pechenaya, A.I. Altuxov, V.P. Neganova⁴ kabilar tomonidan oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik I.Yu. Umarov, X.P. Abulqosimov, D.N. Saidova, O.E. Ernazarov, N. Xalilov, O'M. Baytanov⁵ va boshqalar tomonidan mamlakatda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, mahsulot sifatini boshqarish, innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari kichik tadbirkorlik subyektlarini qiymat zanjiriga integratsiyalash, hududiy ixtisoslashuv asosida "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoati zonalarini shakllantirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy

Botti L., & Manzini R. A supportdesign framework for Cooperative Robots systems in laborintensive manufacturing processes. *Journal of Manufacturing Systems*, Vol. 61, 2021. – pp. 646–657.; Runck B. C., Joglekar A., Silverstein K. A. T., Chan-Kang C., Pardey P. G., and Wilgenbusch J. C. Digital agriculture platforms: driving data-enabled agricultural innovation in a world fraught with privacy and security concerns. *Agron. J.* Vol. 114, 2022. – pp. 2635–2643; Sodano V. Food System Digitalization and Power Shifts. *Frontiers in Sustainable Food System*. 12 June, 2024. – 10 pages. DOI: 10.3389/fsufs.2024.1386672; Gaglani M.N. Digitalization and its Impact on Food Industry. *Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR)*, Vol. 11, Issue 10, October, 2024. – pp. 413-421.

⁴ Иванова Г.Н., Окрепилов В.В., Окрепилова И.Г. Развитие теории управления качеством с целью устойчивого развития и повышения качества жизни. *Качество и жизнь*. № 1. 2016. – с. 3-9; Александрова Е.Н. Обзор современных проблем и тенденций развития отрасли пищевой промышленности России / Е.Н. Александрова, Р.И. Сташ // *Экономика устойчивого развития*. – 2018. – № 4 (36). – С. 99–102.; Кайгородцев А. А. Продовольственная безопасность Казахстана: оценка состояния и путиобеспечения // *Большая Евразия: Развитие, безопасность, сотрудничество. Экономика и бизнес*. – 2019. – No 2(1). – С. 51-54; Печеная Л.Т., Савватеев Е.В., Афанасьева Г.А., Домарев И.Е. Состояние и тенденции развития рынков пищевой промышленности: теория, методология, практика // *Пищевая промышленность*. № 5. 2019. С. 39–43; Алтухов А.И. Продовольственная безопасность в контексте реализatsии новой редакции ее доктрины // *Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии*, № 9, 2020. – с. 82-89; Неганова В.П., Чистяков Ю.Ф., Дрокин В.В., Журавлев А.С., Седельников В.М. Конкурентоспособность региональных агропродовольственных систем: теоретический обзор. *Экономика региона*, Т. 17, вып. 1, 2021. – с. 329-353.

⁵ Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida) I.f.n. diss. 08.00.03-Industrial tarmoqlar iqtisodiyoti. Toshkent, 2009. – 148 b.; Abulqosimov X.P., Rasulov T.C. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўллари. Рисола. - Т.: "Fan va texnologiya", 2015.; Saidova D.N., Rustomova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siёsat va oziq-ovqat xavfsizligi: Ўқув қўлланма. Т.: "ЎзР Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaхonasi нашриёти, 2016 – 257 б.; Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // *Иқтисодийот фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати*. – Т.: 2020. 60 б.; Халилов Н. Маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишда сифатни бoшқариш тизимини такомиллаштириш (Andijon viloyati sanoat korxonalari misolida). Иқтисодийот фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Т.:2020.– 24 б.; Baytanov O'M. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Andijon – 2024. – 27 bet.

etish hamda muqobil ssenariylar asosida prognozlash nuqtayi nazaridan kompleks va tizimli tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsiya mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion va raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid nazariy-uslubiy yondashuvlarni tadqiq etish va ularning ilmiy mazmunini asoslash;

O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish, resurs, tashkiliy-boshqaruv va bozor omillarini aniqlash;

kichik subyektlarni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qiymat zanjiriga integratsiyalash orqali inklyuziv, samarali va o'zaro bog'langan bozorlarni shakllantirish imkoniyatlarini baholash;

hududlarning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvini hisobga olgan holda "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoati zonalarida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va ta'minot zanjirini asoslash;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish asosida "Radio Frequency Identification (RFID)", "Blockchain", "Energy Management System" va "External Interface" modullarini yagona raqamli boshqaruv konturiga integratsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish;

kichik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmi, aholi bandligi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'p omilli regressiya-korrelyatsiya tahlili asosida baholash;

2026–2030-yillarga mo'ljallangan inersion, pessimistik va optimistik ssenariylar asosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalari, jumladan, O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi ishlab chiqaruvchi subyektlar faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot

ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tanlanma tadqiq qilish, monografik tahlil, guruhlash, regressiya-korrelyatsiya tahlili, ekonometrik modellash va prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat sanoatida kichik ishlab chiqaruvchilarning xomashyo, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va sotish jarayonlaridagi uzviy bog'liqligi yetarli emasligi asoslanib, fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari hamda kichik oziq-ovqat sanoati korxonalarini yagona kooperatsion qiymat zanjiriga birlashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish ixtisoslashuvi bilan qayta ishlash quvvatlari o'rtasidagi nomutanosiblik aniqlanib, agrar ixtisoslashuvga mos "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoati zonalarini shakllantiruvchi uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish, energiya sarfi, moliyaviy nazorat va tashqi bozor bilan aloqalar alohida boshqarilayotganligi samaradorlikni cheklovchi omil sifatida asoslanib, "Radio Frequency Identification (RFID)", "Blockchain", "Energy Management System" va "External Interface" modullarini yagona raqamli boshqaruv konturiga integratsiyalash mexanizmi ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati samaradorligini baholashda faqat umumiy ishlab chiqarish hajmiga tayanish yondoshuvining cheklanganligi asoslanib, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi, kichik sanoat korxonalari ishlab chiqarishi va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan ko'p omilli regressiya-korrelyatsiya prognoz modeli hamda 2026–2030-yillarga mo'ljallangan ssenariylar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish, resurs, tashkiliy-boshqaruv va bozor omillarini baholash asosida samaradorlikni oshirish yo'nalishlari aniqlangan;

kichik tadbirkorlik subyektlarini oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya zanjiriga integratsiyalash orqali xomashyo ta'minoti, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va sotish jarayonlari o'rtasidagi kooperatsion bog'liqlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

hududlarning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi va mahalliy xomashyo bazasidan kelib chiqib, "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoati zonalarida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish hamda hududiy ta'minot zanjirini qisqartirish bo'yicha amaliy yondashuv taklif etilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli boshqaruv mexanizmlarini

joriy etish orqali xomashyo harakati, ishlab chiqarish bosqichlari, omborlash, energiya sarfi, moliyaviy nazorat va tayyor mahsulot realizatsiyasini tezkor monitoring qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar asoslangan;

kichik sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi, aholi bandligi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik asosida 2026–2030-yillarga mo'ljallangan inersion, pessimistik va optimistik ssenariylar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi, Jahon banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, qo'llanilgan yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, kichik tadbirkorlik subyektlarini qiymat zanjiriga integratsiyalash, hududiy ixtisoslashuv asosida "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoati zonalarini shakllantirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy yondashuvlarni rivojlantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahalliy xomashyo bazasidan oqilona foydalanish, mahsulot harakati va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli monitoring qilish, shuningdek, 2026–2030- yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari asosida istiqbolli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oziq-ovqat sanoatida kichik ishlab chiqaruvchilarning xomashyo, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va sotish jarayonlaridagi uzviy bog'liqligi yetarli emasligi asoslanib, fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari hamda kichik oziq-ovqat sanoati korxonalarini yagona kooperatsion qiymat zanjiriga birlashtiruvchi ishlab chiqilgan mexanizmi O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati

uyushmasi tizimidagi korxonalar faoliyatida amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2026-yil 6-fevraldagi 06-13/02-26-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu mexanizm ishlab chiqarish xarajatlari, vaqt va kapital sarfini qisqartirish hamda kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish imkonini berishi bilan asoslangan hamda uni amaliyotda qo'llash natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari, qayta ishlash korxonalari va realizatsiya kanallari o'rtasidagi kooperatsion aloqalar mustahkamlanib, xomashyo yetkazib berish, mahsulot ishlab chiqarish va bozorga chiqarish jarayonlarining o'zaro muvofiqligi ortgan;

hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ixtisoslashuvi bilan oziq-ovqat sanoati qayta ishlash quvvatlari o'rtasidagi nomutanosiblik mavjudligi aniqlanib, amaldagi umumiy sanoat zonolari tashkil etish yondashuvidan farqli ravishda hududlarning agrar ixtisoslashuviga mos "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoati zonalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvi O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalar faoliyatida amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2026-yil 6-fevraldagi 06-13/02-26-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu yondashuv hududiy integratsiya va kooperatsiyani kuchaytirish, kichik korxonalarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bozor infratuzilmasi samaradorligini oshirish hamda ta'minot zanjiridagi tizimli uzilishlarni bartaraf etish imkonini berishi bilan isbotlangan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish, energiya sarfi, moliyaviy nazorat va tashqi bozor bilan aloqalar alohida boshqarilayotganligi sababli samaradorlik cheklanayotgani asoslanib, amaldagi avtomatlashtirilgan boshqaruvdan farqli ravishda "Radio Frequency Identification (RFID)", "Blockchain", "Energy Management System" va "External Interface" modullarini yagona raqamli boshqaruv konturiga integratsiya qilish asosida ishlab chiqilgan mexanizm O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalar faoliyatida amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2026-yil 6-fevraldagi 06-13/02-26-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu mexanizmni qo'llash natijasida xomashyo harakati, ishlab chiqarish bosqichlari, omborlash va tayyor mahsulot aylanmasini tezkor kuzatish imkoniyati yaratilib, mahsulot harakati shaffofligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirgan. Shuningdek, ushbu mexanizm uyushma qoshidagi korxonalar xarajatlarini kamaytirish, daromadlar hajmini oshirish, elektroenergiya sarfini optimallashtirish, mahsulot sifati va standartlashtirishni to'liq nazorat qilish, mehnat unumdorligini oshirish hamda bozor o'zgarishlariga moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qilgan;

oziq-ovqat sanoati samaradorligini baholashda faqat umumiy ishlab chiqarish hajmiga tayanish yondoshuvining cheklanganligi asoslanib, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi, kichik sanoat korxonalari ishlab chiqarishi va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlikka

asoslangan ko'p omilli regressiya-korrelyatsiya prognoz modeli hamda ishlab chiqilgan 2026–2030- yillarga mo'ljallangan ssenariylar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalar faoliyatida amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2026-yil 6-fevraldagi 06-13/02-26-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish natijasida oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, kichik sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish va istiqbolli boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyati oshdi hamda model asosida 2026–2030-yillar uchun pessimistik, inersion va optimistik ssenariylar hisoblanib, mos ravishda -21,3 %, +18,8 % va +39,2 % o'zgarish prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 155 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, obyekti va predmeti tasniflangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalar bayoni, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlar”** deb nomlangan. Dissertatsiyaning birinchi bobida oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy mazmuni, samaradorlikka ta'sir etuvchi xomashyo, resurs, logistika, bozor va raqamli omillar nazariy-uslubiy jihatdan yoritilgan.

1-jadval

Oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga oid nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili⁶

Ilmiy nazariyalar guruhi	Ustuvorlik yo'nalishlari	Nazariyalar mohiyati
Resurslar	Mehnat sarfini optimallashtirish	Mahsulot ishlab chiqarish

⁶ Tahlillar asosida muallif ishlanmasi.

samaradorligini oshirish	Kapital sarfini optimallashtirish	uchun zarur bo'lgan resurslarning texnologik elastiklik bo'yicha optimal darajasini aniqlash
	Xomashyo sarfini optimallashtirish	
Xarajatlarni minimallashtirish	Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar	Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni optimallashtirish asosida mahsulot tannarxini arzonlashtirish
	Ko'lam samarasi	
	Logistik xarajatlarni optimallashtirish	
Innovatsion rivojlanish nazariyalari	Texnologik innovatsiyalar	Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion munosabatlarni kuchaytirish asosida yangi texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish
	Mahsulot innovatsiyasi	
	Innovatsion sikl va tijoratlantirish	
Sifat standartlariga integratsiyalashuv	Xalqaro sifat standartlari	Sifatli mahsulot ishlab chiqarish orqali bozorda iste'molchilar ishonchiga kirish va bozor qamrov darajasini oshirish
	Milliy sifat standartlari	
	Korxonaning xususiy sifat standartlari	
Barqaror rivojlanish nazariyalari	Ekologik toza texnologiyalar	Oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish
	Zararli gazlar chiqishini kamaytirish	
	Energiya manbalarining barqarorligi	

Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarini ishlab chiqarish va realizatsiya zanjiriga integratsiyalash, hududiy ixtisoslashuv asosida "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoat zonalarini shakllantirish hamda RFID texnologiyasi orqali ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli nazorat qilishning ilmiy asoslari ochib berilgan.

1-jadvaldan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish faqat xarajatlarni kamaytirish bilan cheklanmay, resurslardan oqilona foydalanish, texnologik va mahsulot innovatsiyalarini joriy etish, sifat standartlariga muvofiq ishlab chiqarish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Shu jihatdan mazkur nazariy qarashlar kichik subyektlarni ishlab chiqarish zanjiriga integratsiyalash, "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoat zonalarini shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli boshqarish bo'yicha tadqiqot yondashuvlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar xomashyo ta'minoti, ishlab chiqarish quvvatlari, resurslar sarfi, logistika, raqamli nazorat va bozor talablari bilan uzviy bog'liq. Shu sababli mazkur omillarni tizimlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

2-jadval

Oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi

omillar tasnifi⁷


Omillar guruhi	Mazmuni va iqtisodiy ta'siri
Xomashyo omillari	Mahalliy xomashyo bazasi va barqaror etkazib berish ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi
Ishlab chiqarish omillari	Quvvatlardan samarali foydalanish va texnologik jarayonlarni maqbullashtirish mahsulot hajmini oshiradi
Resurs omillari	Mehnat, energiya va moddiy resurslardan tejamkor foydalanish tannarxni pasaytiradi
Tashkiliy omillar	Kichik subyektlar bilan kooperatsiya va logistika tizimi ishlab chiqarish zanjirini samarali bog'laydi
Raqamli omillar	RFID va elektron monitoring mahsulot harakatini nazorat qilish va yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi
Bozor omillari	Realizatsiya kanallari, talab va raqobat mahsulot sotish hajmi hamda rentabellikka ta'sir ko'rsatadi
Ijtimoiy-iqtisodiy omillar	Aholi bandligi va kichik biznes faolligi hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat sanoatida samaradorlikni oshirish xomashyo bazasidan oqilona foydalanish, xarajatlarni kamaytirish, kichik subyektlar kooperatsiyasini kuchaytirish va mahsulot harakatini raqamli nazorat qilishga bog'liq. Ayniqsa, resurs, tashkiliy va raqamli omillarning uyg'unligi ishlab chiqarish zanjirini barqarorlashtirib, tannarxni pasaytirish va mahsulot realizatsiyasi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion faoliyat iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yangi mahsulotlar yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi xomashyo turlaridan foydalanish va bozorlarni o'zlashtirish orqali korxonalarning raqobatbardoshligi hamda moliyaviy natijalari yaxshilanadi. 1-rasmda innovatsion faoliyatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlari aks ettirilgan (1-rasm).

1-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mahsulot turlarini kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Natijada, korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligi, mahsulot raqobatbardoshligi va iqtisodiy natijadorlik darajasi oshadi.

⁷ Tahlillar asosida muallif ishlanmasi.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini innovatsion faoliyati hisobiga ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini namoyon bo'lish xususiyati

Jahon amaliyotida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlarda subsidiyalari, soliq imtiyozlari, import siyosati va ilmiy-tadqiqotlarni rag'batlantirish orqali tarmoqning barqaror rivojlanishi ta'minlanmoqda. Ushbu jadvalda AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyoning yetakchi mamlakatlari tajribasi qiyosiy tahlil qilingan (3-jadval).

3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat sanoatini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari davlat subsidiyalari, soliq imtiyozlari, innovatsiyalarni rag'batlantirish va ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishdan iborat.

Mazkur tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib qo'llash oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

3-jadval


Oziq-ovqat sanoatini davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning yetakchi mamlakatlar amaliyoti qiyosiy tahlili⁸

Yo'nalish	AQSh	Yevropa Ittifoqi mamlakatlari	Osiyo mamlakatlari (Xitoy va Yaponiya)
Subsiyalar	Keng qamrovli, fermerlarga to'g'ridan-to'g'ri yordam	Qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalari uchun	Innovatsion kompaniyalar va fermerlar uchun
Import	Oziq-ovqat xavfsizligi	Bozorga kirish	Katta tarif va notarif

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

himoyasi	doirasida cheklangan	erkinligi mavjud	cheklovlar
Soliq imtiyozlari	Startaplar va fermerlar uchun	Ekologik tozalikka asoslangan	Eksportchilar va innovatsiyalarga yo'naltirilgan
Ilmiy tadqiqotlar	Texnologik innovatsiyalar va grantlar	Universitet va sanoat hamkorligi	Tadqiqot institutlari orqali qo'llab-quvvatlanadi

Tadqiqotning **“O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning hozirgi holati, tarmoq rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Unda O‘zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalar faoliyati, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahalliy xomashyo bazasidan foydalanish, qayta ishlash, saqlash, logistika va realizatsiya jarayonlarining samaradorlikka ta’siri ilmiy jihatdan baholangan. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjiridagi ishtiroki, hududiy ixtisoslashuv imkoniyatlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish holati hamda ishlab chiqarish hajmi va aholi bandligi o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik alohida tahlil qilingan.



2-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish dinamikasi, 2010–2025-yillar, (mlrd so‘m)⁹

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi tarmoqning iqtisodiy salohiyati, ichki bozor talabini qondirish darajasi va qayta ishlash quvvatlaridan foydalanish holatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu bois 2010–2025-yillar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasini tahlil qilish tarmoqdagi o‘shish tendensiyalarini baholash imkonini beradi.

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2010–2024-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 521,5 mlrd so‘mdan 102 732,6 mlrd so‘mgacha oshib, barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. Ayniqsa,

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2019-yildan keyin o'sish sur'atlarining tezlashgani tarmoqda qayta ishlash quvvatlari, ichki talab va mahsulot assortimenti kengayib borayotganini ko'rsatadi. 2025-yil uchun taxminiy hisoblangan 121 224,5 mlrd so'mlik ko'rsatkich esa oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini yanada oshirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va mahsulot ishlab chiqarish zanjirini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalar turli ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va realizatsiya yo'nalishlarini qamrab oladi. Ushbu korxonalarni faoliyat turlari bo'yicha guruhlashtirish oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish zanjirining tarkibiy tuzilishi va iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy bo'g'inlarni aniqlash imkonini beradi.

4-jadval

O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalarning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tasnifi¹⁰

Korxonalar guruhi	Asosiy faoliyat yo'nalishi	Taxminiy qamrovi, ta
Un, non va makaron mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar	Donni qayta ishlash, un, non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish	450–500
Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalari	Konserva, sharbat, quritilgan va muzlatilgan mahsulotlar ishlab chiqarish	350–400
Yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar	O'simlik moyi, margarin va yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish	180–220
Sut va sut mahsulotlari korxonalari	Sutni qayta ishlash, yogurt, pishloq, qaymoq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish	250–300
Go'sht va go'sht mahsulotlari korxonalari	Go'shtni qayta ishlash, kolbasa, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish	220–270
Ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar	Sharbat, mineral suv, gazlangan va boshqa alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish	200–250
Qandolat va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari korxonalari	Shirinliklar, pechenye, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	300–350
Saqlash, sovutish va logistika subyektlari	Omborlash, sovutish, tashish va mahsulotni yetkazib berish xizmatlari	150–200
Savdo, eksport va xizmat ko'rsatish subyektlari	Ichki va tashqi bozorlarga mahsulot chiqarish, sertifikatlash, marketing va savdo xizmatlari	200–250

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi tizimidagi korxonalar xomashyoni qayta ishlashdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, saqlash, logistika, savdo va eksport

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

xizmatlarigacha bo'lgan keng qamrovli faoliyatni o'z ichiga oladi. Korxonalarining eng katta qismi un, non va makaron mahsulotlari, meva-sabzavotni qayta ishlash hamda qandolat va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishlariga to'g'ri keladi. Bu esa tarmoqda mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, kichik subyektlarni ishlab chiqarish zanjiriga integratsiyalash va mahsulotni bozorga yetkazish jarayonlarini muvofiqlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat sanoatida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoq korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, "Agromir Group" misolida meva-sabzavotni qayta ishlash va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qilish korxonada mahsulot hajmi, eksport tushumlari, xarajatlar va rentabellik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash imkonini beradi.

5-jadval

"Agromir Group" misolida meva-sabzavotni qayta ishlash va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi, 2021–2025-yillar¹¹

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y.
Ishlab chaqarilgan mahsulot hajmi	mlrd so'm	800	920	1 050	1 220	1 400
Eksport tushumlari	mlrd so'm	320	380	450	540	650
Eksport ulushi	%	40,0	41,3	42,9	44,3	46,4
Tannarx va umumiy xarajatlar	mlrd so'm	680	770	860	980	1 100
Foyda	mlrd so'm	120	150	190	240	300
Rentabellik darajasi	%	17,6	19,5	22,1	24,5	27,3

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021–2025-yillarda "Agromir Group" misolida yalpi mahsulot hajmi 800 mlrd so'mdan 1 400 mlrd so'mgacha, eksport tushumlari esa 320 mlrd so'mdan 650 mlrd so'mgacha oshgan. Eksport ulushining 40,0 foizdan 46,4 foizgacha o'sishi korxona mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, foyda 120 mlrd so'mdan 300 mlrd so'mgacha, rentabellik darajasi esa 17,6 foizdan 27,3 foizgacha o'sgan.

6-jadval

"Milk House" QK MChJning "Musaffo" brendi misolida sut mahsulotlari ishlab chiqarishda resurslardan foydalanish samaradorligi, 2021–2025-yillar¹²

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y.
Qabul qilingan xom sut hajmi	ming tonna	45	50	56	62	68
Tayyor sut mahsulotlari hajmi	ming tonna	40	45	51	57	63
Xomashyodan chiqish koeffitsiyenti	%	88,9	90,0	91,1	91,9	92,6

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹² Muallif tomonidan tuzilgan.

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y.
Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati	mlrd so'm	150	165	185	205	230
Yalpi tushum	mlrd so'm	420	480	560	650	760
Xodimlar soni	kishi	520	540	560	580	600
Mehnat unumdorligi	mln so'm/kishi	807,7	888,9	1000,0	1120,7	1266,7
Fond qaytimi	so'm/so'm	2,80	2,91	3,03	3,17	3,30

Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik xomashyodan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy vositalar qaytimi va mehnat unumdorligi bilan bevosita bog'liq. Shu jihatdan, "Milk House" QK MChJning "Musaffo" brendi misolida resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish kichik va o'rta oziq-ovqat sanoati korxonalari salohiyatini baholash imkonini beradi (6-jadval).

2021–2025-yillarda xom sut qabul qilish, tayyor mahsulot hajmi, yalpi tushum, mehnat unumdorligi va fond qaytimi barqaror o'sgan. Xomashyodan chiqish koeffitsiyentining 88,9 foizdan 92,6 foizgacha oshishi resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanganini ko'rsatadi. Bu sut mahsulotlari ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun xomashyo tejamkorligi va texnologik jarayonlarni maqbullashtirish muhimligini asoslaydi.

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyatini ekonometrik tahlil qilish asosida hududlarning eksport imkoniyatlarini kengaytirish va ularning importga qaramligini kamaytirishga qaratilgan keng turdagi tayyor raqobatbardosh mashinasozlik, elektrotexnika va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ustuvor qo'llab-quvvatlash zarur, deb hisoblaymiz.

Chiziqli regressiya tenglamasi quyidagi (2.1) formula orqali hisoblanadi:

$$y = bx + a \quad (2.1)$$

Yuqorida keltirilgan chiziqli regressiya tenglamasida keltirib o'tilgan "a" va "b" vektor ko'rsatkichlari koeffitsiyentlarini aniqlash uchun quyidagi tartibdagi tenglamalar tizimini yechish kerak bo'ladi:

$$\begin{cases} a * n + b * \sum x = \sum y \\ a * \sum x + b * \sum x^2 = \sum y * x \end{cases}$$

Yuqorida keltirib o'tilgan tenglamalar tizimini yechish uchun milliy oziq-ovqat sanoatining mamlakat ishlab chiqarish sanoatida tutgan o'rnini iqtisodiy-matematik usullar asosida tahlil qilish bo'yicha ma'lumotlar jadvali ma'lumotlaridan foydalangan holda tegishli hisob-kitoblar amalga oshirilib, uning natijalari 2-ilovada keltirilib, olingan natijalarni yuqoridagi tenglamalar tizimiga joylashtirib chiqamiz.

$$\begin{cases} 14a + 11421,8b = 909905,6 \end{cases}$$

$$11421,8a + 13005734,42b = 1184997968,7$$

Olingan natijalar asosida shakllangan tenglamalar tizimini algebraik hisob-kitoblar asosida yechamiz. Tuzilgan gipoteza asosida shakllantirilayotgan chiziqli regressiya tenglamasidagi "a" va "b" vektor ko'rsatkichlari koeffitsiyentlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan hisob-kitoblar natijalarini yuqoridagi (2.1) formulaga joylashtirish asosida milliy oziq-ovqat sanoatining mamlakat ishlab chiqarish sanoatida tutgan o'rnini baholash bo'yicha quyidagi chiziqli regressiya tenglamasiga ega bo'ldik:

$$y = 120,048x - 32947,076$$

Shakllangan chiziqli regressiya tenglamasi asosida mamlakat qayta ishlash sanoatida yaratilgan qo'shilgan qiymat bilan milliy oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari o'rtasida umumiy holda o'zaro bir xil vektordagi rivojlanish tendensiyasi kuzatilgan, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Keyingi bosqichda mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining mamlakat ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi ortishiga ta'sirini baholash uchun shakllangan chiziqli regressiya tenglamasining to'g'ri hisoblanganligini quyidagi bir nechta parametrlarini hisoblash orqali tekshirish talab etiladi:

birinchisi, o'rtacha ko'rsatkichlar:

$$\begin{aligned}\bar{x} &= \frac{\sum x_i}{n} = \frac{11421.8}{14} = 815.843 \\ \bar{y} &= \frac{\sum y_i}{n} = \frac{909905.6}{14} = 64993.257 \\ \overline{xy} &= \frac{\sum x_i y_i}{n} = \frac{1184997968.7}{14} = 84642712.05\end{aligned}$$

ikkinchisi, dispersiya ko'rsatkichlari:

$$\begin{aligned}S(x)^2 &= \frac{\sum_{i=1}^n x_i^2}{n} - \left(\bar{x}\right)^2 = \frac{13005734,42}{14} - 815,843^2 = 263381,46 \\ S(y)^2 &= \frac{\sum_{i=1}^n y_i^2}{n} - \left(\bar{y}\right)^2 = \frac{114387075643,5}{14} - 64993,257^2 = 3946381929,07\end{aligned}$$

uchinchisi, o'rtacha kvadratik xatolik (yoki og'ish):

$$\begin{aligned}S(x) &= \sqrt{S^2(x)} = \sqrt{263381.46} = 513.207 \\ S(y) &= \sqrt{S^2(y)} = \sqrt{3946381929.07} = 62820.235\end{aligned}$$

Yuqoridagi chiziqli regressiya tenglamasi parametrlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida "a" va "b" vektor ko'rsatkichlarining qiymatini quyidagi tartibda aniqlaymiz:

$$b = \frac{\overline{xy} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{S^2(x)} = \frac{84642712.05 - 815.843 \cdot 64993.257}{263381.46} = 120.048$$

$$a = y - b \cdot x = 64993,257 - 120,048 \cdot 815,843 = -32947,076$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, chiziqli regressiya tenglamasi to'g'ri hisoblangan va mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi bilan umuman mamlakatning qayta ishlash sanoatida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmlari umumiy holda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Keyingi bosqichda mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining mamlakat qayta ishlash sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmiga ta'sirini korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash asosida ular o'rtasidagi ichki bog'liqlik aniqlanib, viloyat oziq-ovqat sanoatining mamlakat ishlab chiqarish sanoatidagi tutgan o'rniga baho berish mumkin bo'ladi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$r_{xy} = \frac{x \cdot y - \bar{x} \cdot \bar{y}}{S(x) \cdot S(y)} = \frac{84642712,05 - 815,843 \cdot 64993,257}{513,207 \cdot 62820,235} = 0,981$$

Chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati " $-1,0 < r_{xy} < 1,0$ " oralig'ida bo'lib, olingan natija Cheddok shkalasiga ko'ra quyidagicha baholanadi:

- 0,1 < r_{xy} < 0,3 – juda kuchsiz ichki bog'liqlik;
- 0,3 < r_{xy} < 0,5 – kuchsiz ichki bog'liqlik;
- 0,5 < r_{xy} < 0,7 – sezilarli (o'rta darajadagi) ichki bog'liqlik;
- 0,7 < r_{xy} < 0,9 – kuchli ichki bog'liqlik;
- 0,9 < r_{xy} < 1,0 – sezilarli darajada kuchli ichki bog'liqlik;

Agarda olingan natija manfiy bo'lsa, u holda Cheddok shkalasi bo'yicha baholash mezonlariga mos holda teskari ichki bog'liqlik mavjud degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan mamlakat qayta ishlash sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi o'rtasidagi ichki bog'liqlikni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi ichki bog'liqlik Cheddok shkalasiga muvofiq, sezilarli darajada kuchli bo'lib, uni ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,981 ga teng bo'ldi. Olingan natija to'g'riligini chiziqli regressiya tenglamasidagi " b " vektor ko'rsatkichi orqali chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash amaliyotidan foydalangan holda tekshiramiz va u quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

$$r_{x,y} = b \cdot \frac{S(x)}{S(y)} = 120,048 \cdot \frac{513,207}{62820,235} = 0,981$$

Chiziqli regressiya tenglamasidagi " b " vektor ko'rsatkichi orqali chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash natijalariga ko'ra, olingan natija o'zgarishsiz qolib, mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi bilan mamlakat qayta ishlash sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi o'rtasida sezilarli darajadagi kuchli

bog'liqlik mavjud ekanligini yana bir bor isbotladi.

Olingan xulosa qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirish maqsadida korrelyatsiya koeffitsiyentining ishonchlilik oralig'ini baholash kerak bo'ladi va u quyidagi tartibda baholanadi:

$$(0.981 - 2.56\sqrt{\frac{1 - 0.981^2}{14 - 2}}; 0.981 + 2.56\sqrt{\frac{1 - 0.981^2}{14 - 2}})$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentining ishonchlilik oralig'i " $r \in (0,836;1)$ "ga teng bo'lib, olingan xulosa to'g'ri ekanligini ko'rsatdi.

Keyingi bosqichda hisoblangan chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti asosida chiziqli regressiya tenglamasini hisoblash orqali olingan umumiy natijalar to'g'riligini tekshirish kerak bo'ladi va u quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

$$y_x = r_{xy} * \frac{\bar{x} - \bar{x}}{S(x)} * S(y) + \bar{y}$$

$$y_x = 0,981 * \frac{x-815,843}{513,207} * 62820,235 + 64993,257 =$$

$$= 120,048x - 32947,076$$

Chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti asosida chiziqli regressiya tenglamasini hisoblash orqali amalga oshirilgan hisob-kitob natijalarini tekshirish natijalari avvalgi olingan natijalar bilan o'zaro teng bo'lib, umumiy xulosalarni shakllantirish mumkinligidan dalolat beradi.

Demak, milliy oziq-ovqat sanoatining mamlakat qayta ishlash sanoatida tutgan o'rnini tanlangan uslubiyotga muvofiq, mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan mamlakat ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chiziqli regressiv-korrelyatsion tahlillar asosida baholash natijalariga ko'ra, ushbu ikki ko'rsatkich umumiy bo'lgan rivojlanish vektoriga ega bo'lib, ular o'rtasida sezilarli darajada kuchli ichki bog'liqlik mavjud. Shuningdek, mahalliy oziq-ovqat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi qo'shimcha 1,0 vektor birlikdagi koeffitsiyentga o'sishi hisobiga mamlakat qayta ishlash sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi qo'shimcha 120,048 vektor koeffitsiyentga teng bo'lgan o'sish tendensiyasiga erishgan. Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining ortishi inobatga olinmagan taqdirda, mamlakat ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi 32947,076 vektor koeffitsiyentidagi pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi aniqlandi. Ushbu holat mamlakat qayta ishlash sanoatida mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari muhim o'rin egallashi bilan birgalikda, ular yuqori iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichiga ega ekanligini ham anglatadi.

Shu o'rinda mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi ortishi hisobiga mamlakat qayta ishlash

sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmining qo'shimcha ortishiga olib keladi, degan xulosaga kelishdan avval elastiklik koeffitsiyentini hisoblashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Elastiklik koeffitsiyenti mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,0 foizga ortganda mamlakat ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmining qo'shimcha necha foizga o'sganligini aniqlash imkonini beradi va u quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$E = \frac{\partial y}{\partial x} \cdot \frac{x}{y} = b \frac{\bar{x}}{\bar{y}}$$


$$E = 120.048 \frac{815.843}{64993.257} = 1.507$$

Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan mamlakat qayta ishlash sanoatida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmlari o'rtasidagi elastiklik koeffitsiyentini hisoblash natijalariga ko'ra, viloyat oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1,0 foizga ortganda mamlakat ishlab chiqarish sanoatida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi 1,483 foizga ko'payishi aniqlangan.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida raqamlashtirish jarayonlari, korxonada xodimlarni nazorat qilish va mehnat unumdorligini oshirish uchun "Radio Frequency Identification (RFID)" texnologiyalaridan foydalanish, korxonaning moliyaviy faoliyatini, korxonaning moddiy-texnik bazasini nazorat qilish uchun "Blokcheyn" dasturi, xususan, elektr energiyasini iste'mol qiluvchi barcha qurilmalar uchun "Energiya iste'molini boshqarish tizimi (EMS)" dasturi va korxonaning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri uchun "Tashqi interfeys" dasturi uchinchi ilmiy yangilikni tashkil etadi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **"Oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishini iqtisodiy samaradorligini oshirishda kichik sanoat korxonalari salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari"** deb nomlangan.

Yuqorida o'tkazilgan tahlillarga asoslangan holda mamlakat oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda kichik sanoat korxonalari o'rtasida o'zaro iqtisodiy manfaatdorlik asosida inklyuziv, samarali va bog'langan bozorlarni yaratishda oziq-ovqat qiymat zanjirlariga kirish imkoniyatlaridan foydalanishga ustuvorlik qaratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Ta'kidlash joizki, birinchi ilmiy yangilikda kichik korxonalarni oziq-ovqat ta'minoti zanjiriga jalb qilish orqali inklyuziv, samarali va o'zaro bog'liq bozorlarni yaratish haqida so'z boradi (3-rasm).




3-rasm. Kichik subyektlarni oziq-ovqat qiymat zanjiriga integratsiyalash orqali inklyuziv, samarali va o'zaro bog'langan bozorlarni shakllantirish modeli¹³

Ayniqsa, kichik oziq-ovqat sanoat korxonalarining joylashtirilishi ko'zga tashlanadi. Jumladan, ushbu omil hududning tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlari, hududning geografik joylashuvi hamda ekologik vaziyat bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Shu bilan birgalikda, respublika hududlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda, kichik oziq-ovqat sanoati korxonalarini o'zaro mutanosiblikda "nuqtali" kichik sanoat zonalarini tashkil etgan holda mahsulot ishlab chiqarish zanjiri ta'minotini mustahkamlashga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirishga ustuvorlik qaratish kerak bo'ladi (4-rasm).

Bu orqali kichik oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy resurslarga bo'lgan talabi hamda kichik sanoat korxonalarini joylashtirishda bozor infratuzilmasi omillari samaradorligini ta'minlashga erishiladi.

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.



4-rasm. Hududiy agrar ixtisoslashuv asosida “nuqtali” kichik oziq-ovqat sanoat zonalarida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va ta’minlash zanjiri mexanizmi¹⁴

Jahon amaliyoti tahliliga ko’ra, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishda zamonaviy IT-texnologiyalarni joriy etish, “Energy Management System (EMS)”, “Korxona resurslarini boshqarishning markazlashtirilgan tizimlari” (ERP) kabi raqamli texnologiyalardan keng qo’llaniladi.

Jumladan, tadqiqot doirasida oziq-ovqat sanoati korxonalari mahsulot ishlab chiqarishi jarayonida IT-texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari bo’yicha tuzilgan so’rovnoma natijalariga ko’ra, zamonaviy IT-texnologiyalar korxona boshqaruvchilarni mavjud jarayonlarga nisbatan tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Jumladan, AQSh, Kanada, Yaponiya, G’arbiy Yevropa mamlakatlari oziq-ovqat sanoati korxonalari mahsulot ishlab chiqarishi jarayonlarida korxona markaziy boshqaruvi ERP-tizimiga asoslangan bo’lib, bu orqali korxona mahsulot ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini oshirishda quyidagi imkoniyatlarga erishilgan:

ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning shaffofligi va xarajatlarning kamayishi;

mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va uning samaradorligini, jumladan, korxonaning mehnat unumdorligi ko’rsatkichlarining yaxshilanishi;

mahsulot sifatining yaxshilanishi, jumladan, ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy kuzatish va nazorat qilish imkoniyatlarining kengayishi.


Oziq-ovqat sanoati korxonalari mahsulot ishlab chiqarishi jarayonlarini

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

raqamlashtirishning jahon amaliyotida muhim ahamiyat kasb etayotgan yana bir dasturiy ta'minot turi bu "Energy Management System (EMS)" hisoblanib, ushbu dastur bugungi kunda ERP-tizimining tarkibiy komponentlaridan biriga aylangan.

Sanoat korxonalari, jumladan, oziq-ovqat sanoati korxonalari mahsulot ishlab chiqarishini raqamlashtirishning yana bir muhim jihat shundaki, bunda korxona boshqaruvchisi tomonidan xodimlarni nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi.

MDH mamlakatlarida raqamli texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarishi jarayoni yo'lga qo'yilgan 500 ga yaqin oziq-ovqat sanoati korxonalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, korxona ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi 67 foizga, turli boshqaruv funksiyalari 15 foizga, korxona IT-bo'limi faoliyati 12 foizga yaxshilanganligi aniqlangan (5-rasm).



5-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarda RFID texnologiyasini ERP tizimi bilan integratsiyalash asosida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli nazorat qilish mexanizmi¹⁵

Taklif etilayotgan oziq-ovqat sanoati korxonalari mahsulot ishlab chiqarishi jarayonlarini zamonaviy IT-texnologiyalar asosida raqamlashtirishning sxematik tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

xodimlarni nazorat qilish va korxonada mehnat unumdorligini oshirishda "Radio Frequency Identification (RFID)" texnologiyalaridan foydalangan holda;

korxonaning moliyaviy faoliyatini nazorat qilishda "Block-chain" dasturini qo'llagan holda;

korxonaning moddiy-texnik bazasi, xususan, elektroenergiya iste'mol qiluvchi barcha vositalarni "Energy Management System (EMS)" dasturi

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

orqali;

korxonaning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarini "External Interface" dasturi orqali raqamlashtirishni lozim, deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyada oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishini iqtisodiy samaradorligini oshirishning muqobil ssenariyalari ishlab chiqilgan.

7-jadval

Oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholashning ko'p omilli regression-korrelyatsion tahlili uchun belgilangan ko'rsatkichlari¹⁶

Yillar (T)	Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi, ming so'mda (y)	Kichik sanoat korxonalari soni, ming birlikda (x_1)	Bandlik darajasi, foizda (x_2)
2010	183,3	31,1	66,9
2011	255,7	32,5	66,2
2012	286,0	33,9	66,6
2013	379,0	34,2	67,1
2014	445,7	36,9	67,7
2015	580,0	38,9	68,2
2016	689,8	40,5	68,7
2017	719,6	46,0	69,2
2018	729,9	53,3	67,4
2019	1029,3	66,3	68,1
2020	1203,7	78,6	66,0
2021	1472,8	85,9	67,0
2022	1696,4	93,1	67,2
2023	1798,3	64,8	67,9
2024	1892,7	51,3	68,3
2025	2025,2	54,5	70,5

Ma'lumotlar asosida birinchi galda ko'p omilli regression modelni quyidagi keltirib o'tilgan formula asosida shakllantirib olish kerak bo'ladi (7-jadval):

$$Y = f(\beta, X) + \varepsilon$$

Bu yerda:

β – hisoblanayotgan ko'p omilli regression modelning vektor ko'rsatkichlari parametrlari;

X – natijaviy omilga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'rsatkichlari;

ε – ko'p omilli regression modelning tasodifiy xatoligi ko'rsatkichi.

Hisoblanayotgan ko'p omilli regression modelning vektor ko'rsatkichlari parametrlari matritsaviy usuldan foydalangan holda aniqlanib, umumiy natijalarni kichik kvadratik usul orqali quyidagi formula asosida hisoblaniladi:

$$s = (X^T X)^{-1} X^T Y$$

Ko'p omilli regression tahlilning vektor koeffitsiyentlari bo'yicha

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

yakuniy natijalarni olish uchun hisoblash orqali ko'p omilli regression modelning vektor ko'rsatkichlari parametrlari aniqlandi va u quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

$$Y = -8088,2506 + 23,4507x_1 + 113,7445x_2$$

Shu o'rinda, shakllantirilgan ko'p omilli regression modelga muvofiq, respublikada aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi qaysi mustaqil o'zgaruvchi, ya'ni kichik sanoat korxonalari yoki aholi bandligi hisobiga ko'proq ortganligini " β " koeffitsiyenti qiymatini hisoblash orqali aniqlash talab etiladi. Bunda quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirdik:

$$\beta_1 = \frac{r_{yx1} - r_{yx2}r_{x1x2}}{1 - r_{x1x2}^2} = \frac{0,918 - 0,0852 \cdot (-0,118)}{1 - 0,118^2} = 0,941$$

$$\beta_2 = \frac{r_{yx2} - r_{yx1}r_{x1x2}}{1 - r_{x1x2}^2} = \frac{0,0852 - 0,918 \cdot (-0,118)}{1 - 0,118^2} = 0,196$$

Olingan natijalar asosida mahalliy oziq-ovqat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida belgilab olingan mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni kichik sanoat korxonalari soni va aholi bandligi darajasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsiyentini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$r_{xy} = \frac{x \cdot y - \bar{x} \cdot \bar{y}}{s(x) \cdot s(y)}$$

Ko'rsatkichlar o'rtasidagi ichki bog'liqlik darajasini ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsiyentini mahraji va sur'atidagi ko'rsatkichlar qiymatlarini aniqlashda 11-13 ilovalarda keltirilgan matritsalar orqali 14-15 ilovalarda keltirilgan tartibdagi hisob kitoblarni amalga oshirib, ular asosida har bir ko'rsatkichlar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsiyentlari quyidagi tartibda aniqlandi:

$$r_{yx1} = \frac{52597,088 - 52,571 \cdot 815,843}{20,6 \cdot 513,207} = 0,918$$

$$r_{yx2} = \frac{55061,449 - 67,443 \cdot 815,843}{0,885 \cdot 513,207} = 0,0852$$

$$r_{x1x2} = \frac{3543,421 - 67,443 \cdot 52,571}{0,885 \cdot 20,6} = -0,118$$

Olingan natijalar asosida mamlakat oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga kichik sanoat korxonalari soni bilan aholi bandligi darajasi o'rtasidagi ichki bog'liqlikni tavsiflovchi korrelyatsion koeffitsiyentlar 7-jadvalda keltirilgan qiymatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Elastiklik koeffitsiyentini aniqlash orqali natijaviy ko'rsatkichga ta'sir

ko'rsatuvchi mustaqil o'zgaruvchi 1,0 foizga ortganda, natijaviy ko'rsatkich necha foizga ortganligini baholashga erishiladi. Quyidagi tuzilgan gipotezaga muvofiq, respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichining elastiklik koeffitsiyentlarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblar keltirib o'tildi:

$$E_i = b_i \cdot \frac{x_i}{y}$$

$$E_1 = 23,451 \cdot \frac{52,871}{815,84} = 1,511$$

$$E_2 = 113,745 \cdot \frac{67,443}{815,84} = 9,403$$

Tuzilgan gipotezaga muvofiq, elastiklik koeffitsiyentini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

birinchi, mamlakatda kichik sanoat korxonalari sonining 1,0 foizga ortishi hisobiga aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmini

1,5 foizga ortganligi aniqlandi;

ikkinchi, mamlakatda aholi bandligi darajasi 1,0 foizga ortganda, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 9,4 foizga ortganligi aniqlandi.

8-jadval

O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash funksiyalari¹⁷

Ssenariya variantlari	Prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash funksiyasi
Inersion ssenariya	$y = 0,7202x^2 + 106,9x - 41,925$
Pessimistik ssenariya	$y = -3,5765x^2 + 173,67x - 217,68$
Optimistik ssenariya	$y = 2,9603x^2 + 72,952x - 45,591$

Dissertatsiya ishining to'rtinchi ilmiy yangiligi shundan iboratki, kichik sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi, aholi bandligi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash asosida 2026–2030-yillarga mo'ljallangan inersion, pessimistik va optimistik ssenariylar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan hamda ulardan oziq-ovqat sanoatida istiqbolli boshqaruv qarorlarini asoslashda foydalanish imkoniyati yaratilgan. Mamlakat oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha 2026–2030-yillarga

¹⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, pessimistik ssenariyada aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 21,3 foizga kamaysa, inersion ssenariyada – 18,8 foizga, optimistik ssenariyada esa 39,2 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi. Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish natijasida oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, kichik sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish va istiqbolli boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyati oshdi.

XULOSA

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini kompleks tadqiq etish natijasida qator nazariy, uslubiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarga kelindi:

1. Oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nazariy-uslubiy jihatdan faqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan emas, balki xomashyo, mehnat, kapital, energiya va logistika resurslaridan oqilona foydalanish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda qo'shilgan qiymat yaratish jarayonlarini takomillashtirish bilan uzviy bog'liqligi asoslandi.

2. O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, xomashyo ta'minoti barqarorligi, resurs sarfi, tashkiliy-boshqaruv sifati, logistika xarajatlari, bozor talabi va realizatsiya kanallari aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi tizimli yondashuv asosida baholandi.

3. Kichik ishlab chiqaruvchilarning xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va sotish jarayonlaridagi uzviy bog'liqligi yetarli darajada shakllanmaganligi asoslanib, fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari hamda kichik oziq-ovqat sanoati korxonalarini yagona kooperatsion qiymat zanjiriga birlashtirish mexanizmi ishlab chiqildi.

4. Hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish ixtisoslashuvi bilan qayta ishlash quvvatlari o'rtasida nomutanosiblik mavjudligi aniqlanib, agrar ixtisoslashuvga mos "nuqtali" kichik oziq-ovqat sanoati zonalarini shakllantirishning uslubiy yondashuvi asoslandi. Ushbu yondashuv xomashyoni hududning o'zida qayta ishlash, tashish va saqlash xarajatlarini kamaytirish hamda hududiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish, energiya sarfi, moliyaviy nazorat va tashqi bozor bilan aloqalar alohida boshqarilayotgani samaradorlikni cheklovchi omil sifatida baholanib, RFID, Blockchain, Energy Management System va External Interface modullarini yagona raqamli boshqaruv konturiga integratsiya qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm mahsulot harakati shaffofligini oshirish, resurs yo'qotishlarini kamaytirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

6. Oziq-ovqat sanoati samaradorligini baholashda faqat umumiy ishlab chiqarish hajmiga tayanish yetarli emasligi asoslanib, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi, kichik sanoat korxonalari ishlab chiqarishi va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlik ko'p omilli regressiya

-korrelyatsiya tahlili asosida baholandi.

7. 2026–2030-yillarga mo'ljallangan inersion, pessimistik va optimistik ssenariylar asosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ushbu prognozlar oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, kichik korxonalarni qiymat zanjiriga integratsiyalash, raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha istiqbolli boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.02.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

АДИЛБЕКОВ АЛЛАЯР АНВАРБЕКОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ В ПИЩЕВОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

08.00.03 – “Экономика промышленности”

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент – 2026

**тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим
экономической трированной в Высшей аттестационной комиссии за № B2026.3.PhD/Iqt56**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Аннотация диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdtu.uz) и Информационно-образовательного портала «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Аимбетов Нагмет Каллиевич доктор экономических наук, академик
Официальные оппоненты:	Кадиров Абдусатарходжа доктор экономических наук, профессор Турсунходжаев Марат Лутфуллаевич доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Бухарский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2026 года в ____:____ ч. на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.02.05 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном техническом университете. (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул.Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-14-64; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (регистрационный номер №___). Адрес: 100095, г.Ташкент, ул.Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-14-70; e-mail: tstu_info@tdtu.uz.

Аннотация диссертации разослан «___» _____ 2026 г.
(протокол реестра № ____ от «___» _____ 2026 г.).

М.А.Икрамов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

О.И.Бегмуллаев

Ученый секретарь Научного

совета по присуждению ученых
степеней, доктор философии (PhD)
по экономическим наукам, доцент

Г.Ж.Аллаева

Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии наук (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях роста населения в мире, увеличения спроса на продукты питания, сбоев в глобальных цепочках поставок, дефицита ресурсов и увеличения энергозатрат повышение экономической эффективности производства продукции на предприятиях пищевой промышленности приобретает важное научно-практическое значение. В этом процессе рациональное использование сырьевых ресурсов, оптимизация производственных затрат, обеспечение качества продукции, внедрение цифровых технологий и “зеленых” методов производства становятся одними из основных направлений обеспечения устойчивости пищевой промышленности. В частности, “в целях повышения экономической эффективности производства на предприятиях пищевой промышленности в странах Европейского Союза действует региональная программа “CAP” на 2023-2027 годы общей стоимостью 273,1 млрд. евро”¹⁸, в рамках которой особое внимание уделяется цифровизации производственных процессов на местных пищевых предприятиях, внедрению “зеленых” технологий, финансированию инновационных проектов и повышению конкурентоспособности продукции.

В мире научные исследования по повышению эффективности производства продукции на предприятиях пищевой промышленности в основном направлены на повышение эффективности использования ресурсов, снижение производственных затрат, технико-технологическую модернизацию, внедрение цифровых систем управления, стабилизацию цепочки поставок сырья и совершенствование механизмов государственной поддержки. В частности, интеграция малых производственных субъектов в цепочку создания стоимости, размещение перерабатывающих мощностей на основе региональной специализации, цифровой мониторинг движения продукции и этапов производства, а также принятие управленческих решений на основе перспективных прогнозных показателей проявляются в качестве приоритетных научных направлений повышения экономической эффективности в пищевой промышленности.

В условиях реформ Нового Узбекистана совершенствуются институциональные и экономические механизмы, направленные на удовлетворение спроса населения на качественные и безопасные продукты питания, эффективное использование местной сырьевой базы, повышение конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности и обеспечение эффективности производства в отрасли. Так, в 2024-2028 годах поставлена цель “увеличить объем

¹⁸ Составлено на основе данных Общей сельскохозяйственной политики https://agriculture.ec.europa.eu/common-agricultural-policy/cap-overview/cap-glance_en

производства продукции с высокой добавленной стоимостью в 1,5 раза и показатели экспорта в 2 раза за счет внедрения эффективных механизмов поддержки деятельности по производству промышленной продукции, модернизации, технического и технологического перевооружения действующих мощностей, привлечения инвестиций в новые проекты, дальнейшего расширения ассортимента конкурентоспособной на рынке продукции, диверсификации производства импортозамещающей продукции". Рост численности населения и потребительского спроса, постоянное повышение эффективности использования ресурсов на малых продовольственных предприятиях, устранение дисбаланса между поставками сырья и перерабатывающими мощностями, полное внедрение цифровых систем управления определяют необходимость совершенствования механизма повышения экономической эффективности производства продукции в данной сфере на научной основе.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 г. «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-153 от 13 июня 2022 г. «О дополнительных мерах повышения эффективности деятельности специальных экономических, малых промышленных, молодежных промышленных и предпринимательских зон», № УП-36 от 16 февраля 2024 г. «О дополнительных мерах по обеспечению продовольственной безопасности в республике», на Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4709 от 11 мая 2020 г. «О дополнительных мерах по специализации регионов республики на производстве сельскохозяйственной продукции», № ПП-4821 от 9 сентября 2020 г. «О мерах по ускоренному развитию пищевой промышленности республики и полноценному обеспечению населения качественной продовольственной продукцией», № ПП-227 от 20 июня 2024 года «О дополнительных мерах по ускорению реформ в сельскохозяйственной и продовольственной сфере», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 37 от 20 января 2022 года «О мерах по дальнейшей поддержке новых перспективных проектов производителей продуктов питания в республике», № 476 от 1 августа 2024 года «О внедрении эффективных механизмов поддержки производства продукции пищевой промышленности» и других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества,

формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Такие ученые дальнего зарубежья, как П.С. Верхоеф, А. Шарма, М. Ронзони, Б.С. Рунк, В. Содано, М.Н. Гаглани¹⁹, в последние годы исследовали глобальные тенденции повышения экономической эффективности производства продукции в пищевой промышленности.

Учеными стран СНГ Г.Н. Ивановой, Е.Н. Александровой, А.А. Кайгородцевым, Л.Т. Печеной, А.И. Алтуховым, В.П. Негановой²⁰ исследованы приоритетные направления повышения качества и конкурентоспособности продукции на предприятиях пищевой промышленности, обеспечения продовольственной безопасности, государственной поддержки отрасли и повышения эффективности производства.

Узбекистанскими учеными И.Ю. Умаровым, Х.П. Абулкосимовым, Д.Н. Саидовой, О.Э. Эрназаровым, Н. Халиловым, У.М. Байтановым²¹

¹⁹ Verhoef P. C., Broekhuizen T., Bart Y., Bhattacharya A., Qi Dong J., Fabian N., et al. Digital transformation: a multidisciplinary reflection and research agenda. J. Bus. Res. Vol. 122, 2021. – pp. 889–901; Sharma A., Jain A., Gupta P., & Chowdary V. Machine learning applications for precision agriculture: A comprehensive review. IEEE Access, Vol. 9, 2021. – pp. 4843–4873; Ronzoni M., Accorsi R., Botti L., & Manzini R. A support design framework for Cooperative Robots systems in laborintensive manufacturing processes. Journal of Manufacturing Systems, Vol. 61, 2021. – pp. 646–657.; Runck B. C., Joglekar A., Silverstein K. A. T., Chan-Kang C., Pardey P. G., and Wilgenbusch J. C. Digital agriculture platforms: driving data-enabled agricultural innovation in a world fraught with privacy and security concerns. Agron. J. Vol. 114, 2022. – pp. 2635–2643; Sodano V. Food System Digitalization and Power Shifts. Frontiers in Sustainable Food System. 12 June, 2024. – 10 pages. DOI: 10.3389/fsufs.2024.1386672; Gaglani M.N. Digitalization and its Impact on Food Industry. Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR), Vol. 11, Issue 10, October, 2024. – pp. 413-421

²⁰ Иванова Г.Н., Окрепилов В.В., Окрепилова И.Г. Развитие теории управления качеством с целью устойчивого развития и повышения качества жизни. Качество и жизнь. № 1. 2016. – с. 3-9; Александрова Е. Н. Обзор современных проблем и тенденций развития другой пищевой промышленности России / Е. Н. Александрова, Р. И. Сташ // Экономика устойчивого развития. – 2018. – № 4 (36). – С. 99–102.; Кайгородцев А. А. Продовольственная безопасность Казахстана: оценка состояния и пути обеспечения // Большая Евразия: Развитие, безопасность, сотрудничество. Экономика и бизнес. – 2019. – № 2(1). – С. 51-54; Печеная Л.Т., Савватеев Е.В., Афанасьева Г.А., Домарев И.Е. Состояние и тенденции развития рынков пищевой промышленности: теория, методология, практика // Пищевая промышленность. № 5. 2019. С. 39–43; Алтухов А.И. Продовольственная безопасность в контексте реализации новой редакции ее доктрины // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии, № 9, 2020. – С. 82-89; Неганова В.П., Чистяков Ю.Ф., Дрокин В.В., Журавлев А.С., Седельников В.М. Конкурентоспособность региональной агропродовольственной системы: теоретический обзор. Экономика региона, Т. 17, вып. 1, 2021. – с. 329-353.

